

## IMKONIYATDAN FOYDALANING!



### 5 TA KO'ChANING 3000 METR QISMI ASFALTFLASHTIRILDI

“Ochiq byudjet” axborot portali orqali joriy yil 1-mavsumida tumanimizda 9 ta loyiha g’olib, deb topilgan edi. Hozirda ushbu loyihalar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Bahor MFYning Maslakdosh, Navo, Bahmal, Ittifoq hamda Boshbuloq ko'chalarining 3000 metr qismiga asfalt yotqizilib, ishlar yakuniga yetkazildi. Loyerha bo'yicha ishlar “Yangiobod kapital ta'mir” MChJ tomonidan 1 milliard 200 million so'm evaziga amalga oshirildi.

Bu ishlardan mahalla ahli xursand. Duolar qilib, minnatdorchilik bildirishmoqda.

**Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, kuni kecha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qoraqalpog'istonlik saylovchilar bilan uchrashuv chog'ida “Ochiq byudjet” loyihalari g'olib bo'lishi uchun 1,5 ming ovoz yetarli bo'lishini va yil yakuniga qadar 1,2 trillion so'm ajratilishini aytib o'tdi.**

Tumandoshlarimizdan kelgusi “Ochiq byudjet” axborot portali orqali loyihalariga ovoz berishlarida faol bo'lishlarini so'rab qolamiz. Bu mahalangiz infratuzilmasini yaxshilashda katta imkoniyatdir.

**Rahmatillo ShODMONOV.**

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2023-06-14 16:46:31